



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASINING QARORI

20 22 y. "22" aprel № 12

**“Davlat statistika hisobotlarini yig‘ish jarayonida
hisobot topshiruvchi subyektlarni to‘liq qamrab olinishini
ta‘minlash bo‘yicha ishlarni tashkil etish Reglamentini tasdiqlash
to‘g‘risida”gi Qarorga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuniga davlat statistika tizimidagi uslubiy hujjatlarni moslashtirish maqsadida, Davlat statistika qo‘mitasi **qaror qiladi:**

1. Davlat statistika qo‘mitasining 2020- yil 30- apreldagi 10-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat statistika hisobotlarini yig‘ish jarayonida hisobot topshiruvchi subyektlarni to‘liq qamrab olinishini ta‘minlash bo‘yicha ishlarni tashkil etish Reglamenti”ga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur qaror tasdiqlangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Rais

B. Begalov

**“Davlat statistika hisobotlarini yig‘ish jarayonida
hisobot topshiruvchi subyektlarni to‘liq qamrab olinishini
ta’minlash bo‘yicha ishlarni tashkil etish Reglamenti”ga kiritilayotgan
o‘zgartirishlar**

1. Mazkur reglament nomidagi “Davlat statistika hisoboti” degan so‘zlar “statistika hisoboti” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.
2. Reglamentning kirish qismida “statistik hisobotlar” degan so‘zlar “statistika hisobotlari” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.
3. 1, 2, 3, 4, va 5-boblardagi “Davlat statistika hisoboti” degan so‘zlar “statistika hisoboti” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.
4. 2, 3 va 4-boblardagi “Statistik registrlarni” degan so‘zlar “Statistika registrlarini” degan so‘zlarga, “Statistik kodlarni” degan so‘zlar “Statistika kodlarini” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.
5. 4-bob. 7-xatboshida “Statistik hisobotni” degan so‘zlar “Statistika hisobotini” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.
6. 4-bob. 8-xatboshi “Statistik hisobotni” degan so‘zlar “Statistika hisoboti” degan so‘zlarga “etmagan” degan so‘z “etilmagan” degan so‘ziga “subyektga” degan so‘zi “subyektiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.
7. 1, 2, 3, 4, 5, 6 ilovalardagi “Davlat statistika hisobotlarini” degan so‘zlar “Statistika hisobotlarini” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.